IJTIMOIY-IQTISODIY TIZIMLAR TRANSFORMATSIYaSI ShAROITIDA AHOLI TADBIRKORLIK FAOLLIGINI OShIRIShNING IJTIMOIY MEXANIZMLARI

Husenov Sirojiddin Visoliddin o‘g‘li
UzMU, mustaqil izlanuvchi
ye-mail: sirojiddin_husenov@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar transformatsiyasi sharoitida aholi tadbirkorlik faolligini oshirishning ijtimoiy mexanizmlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadbirkorlik faolligini shakllantirish va rivojlantirishda motivatsiya, kasbiy ko‘nikmalar hamda moliyaviy ko‘makning o‘zaro integrativ aloqadorligi asoslab berilgan. Shuningdek, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik omillari, inson, madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy kapitallarning o‘zaro konvertatsiyasi, ijtimoiy mobillikni ta’minlashda tadbirkorlikning ahamiyati yoritilgan. «Har bir oila tadbirkor» dasturi doirasidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar misolida amaliy jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiya, aholi tadbirkorligi, oilaviy tadbirkorlik, tadbirkorlik faolligi, motivatsiya, kasbiy ko‘nikmalar, moliyaviy ko‘mak, inson kapitali, ijtimoiy kapital.

Аннотация. В стате осуществлён научно-теоретический анализ сотсиалных механизмов повышения предпринимателской активности населения в условиях трансформатсии социально-экономических систем. Обоснована взаимосвяз мотиватсии, профессионалных навыков и финансовой поддержки как взаимодополняющих и системообразующих компонентов развития предпринимателской деятелности. Раскрыты сотсиально-психологические факторы развития семейного предпринимателства, протсессы конвертатсии человеческого, культурного, сотсиалного и экономического капиталов, а также значение предпринимателства в обеспечении сотсиалной мобилности населения. Практические аспекты рассматриваемой проблемы проанализированы на примере сотсиально-экономических протсессов, реализуемых в рамках программы «Каждая семя – предпринимател».

Ключевые слова: социально-экономическая трансформатсия, предпринимателство населения, семейное предпринимателство, предпринимателская активност, мотивация, профессионалные навыки.

DOI: 10.5281/zenodo.24240546

Abstract. This article provides a scientific and theoretical analysis of the social mechanisms for increasing entrepreneurial activity among the population in the context of the transformation of socio-economic systems. It substantiates the interrelationship between motivation, professional skills, and financial support as complementary and system-forming components of entrepreneurial development. The study examines the socio-psychological factors influencing the development of family entrepreneurship, the processes of conversion among human, cultural, social, and economic capital, as well as the role of entrepreneurship in promoting social mobility. The practical dimensions of the issue are also analyzed through the socio-economic processes implemented within the framework of the “Every Family Is an Entrepreneur” programme.

Keywords: socio-economic transformation, entrepreneurship among the population, family entrepreneurship, entrepreneurial activity, motivation.

Faqatgina iqtisodiy dastaklar orqali hal etiladigan chiziqli jarayon hisoblanmaydi. Ushbu fenomen institutsional, sotsiologik va psixologik omillarning murakkab sintezidan iborat bo‘lib, unda inson kapitali va ijtimoiy muhit o‘zaro mutanosiblikda harakat qiladi. “Motivasiya, ko‘nikma va moliyaviy ko‘mak” triadasi alohida ajralgan elementlar to‘plami emas, balki tizim hosil qiluvchi, ichki va tashqi aloqadorlikka ega bo‘lgan yagona integrativ majmua sifatida namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy harakatning muvaffaqiyati ushbu uchta komponentning bir vaqtda va bir xil kuch bilan amal qilishiga bog‘liq. Agar tizimdan biror bir element chiqib kesa yoki zaiflashsa, umumiy ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik keskin pasayadi, chunki ularning har biri bir-birini taqozo etadi va to‘ldiradi.

Prezident Sh.M.Mirziyoev, “Evropa Ittifoqi va Markaziy Osiyoning raqamli transformatsiya borasidagi ulkan salohiyatidan o‘zaro manfaatli hamkorlik va inklyuziv rivojlanish yo‘lida unumli foydalanish muhim ahamiyatga ega”, [1. -B. 181] deb ta’kidlagan edi.

Makrosotsiologik nuqtai nazardan yondashilganda, motivasiya tizimning harakatlantiruvchi kuchi, ichki energiya manbai hisoblanadi. Ijtimoiy sub’ektning (oila yoki alohida shaxsning) o‘z iqtisodiy holatini o‘zgartirishga bo‘lgan ichki ehtiyoji aniq maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatning boshlanishiga zamin yaratadi. Biroq, faqatgina istak yoki ruhiy tayyorgarlikning mavjudligi amaliy natija berish uchun yetarli emas. Bu yerda tizimning ikkinchi muhim elementi ko‘nikma, ya’ni sohaviy bilimlar, texnologik malaka va boshqaruv qobiliyatlari maydonga chiqadi. Ko‘nikma motivasiyani real harakatlar rejasiga, iqtisodiy loyihaga aylantiruvchi vositadir. Uchinchi komponent, bu moliyaviy ko‘mak esa mazkur ichki salohiyat va malakani moddiy borliqda ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish vositasi sifatida

shakllantirish uchun zarur bo‘lgan resurs bazasini ta’minlaydi. Kapitalsiz ko‘nikma nazariya darajasida qolib ketadi, motivasiya esa tez fursatda so‘nadi.

Integrativ xususiyatning ijtimoiy tabiatini chuqurroq tushunish uchun Maks Veberning iqtisodiy harakatlar ijtimoiy determinasiyasi to‘g‘risidagi nazariyasiga murojaat qilish maqsadga muvofiqdir. Veber iqtisodiy xulq-atvorni ijtimoiy mazmun bilan yo‘g‘rilgan, boshqa odamlarning xatti-harakatlariga yo‘naltirilgan tizim sifatida ko‘rib chiqadi. Oila tadbirkorligi kontekstida motivasiya individuallikdan jamoaviylikka, ya’ni oila a’zolarining umumiy farovonligini ta’minlash va jamiyatda munosib mavqe egallash istagiga transformasiyalanadi. Oilaviy qadriyatlar va an’analar ichki motivasion omil sifatida iqtisodiy faollikni rag‘batlantiradi. Bunday sharoitda ko‘nikmalar avloddan-avlodga o‘tish xususiyatiga (masalan, hunarmandchilik, dehqonchilik an’analari) ega bo‘lib, ijtimoiy kapitalning bir shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Moliyaviy ko‘mak esa ushbu ijtimoiy kapitalni tijoratlashtirish va bozor talablariga moslashtirish uchun tashqi institutsional imkoniyat yaratadi.

Per Burdyoning kapitallar konsepsiyasi ushbu triadaning ichki aloqalarini yanada yaqqolroq yoritib beradi. Muallif iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy kapital turlarining bir-biriga aylanish (konvertasiya) jarayonlarini asoslab bergan. Bizning tizimimizda motivasiya ijtimoiy-psixologik mazmundagi madaniy kapitalning tarkibiy qismi bo‘lsa, ko‘nikma inson kapitalining bevosita ko‘rinishidir. Moliyaviy ko‘mak esa iqtisodiy kapital shakliga ega. Integrasiya jarayoni mana shu kapital turlarining sinergetik birlashuvida namoyon bo‘ladi. Davlat yoki moliya institutlari tomonidan ko‘rsatiladigan moddiy yordam (iqtisodiy kapital) ushbu tizimni harakatga keltiradi. Natijada, investitsiya qilingan mablag‘lar faqatgina moliyaviy foyda emas, balki oilaning ijtimoiy mavqeini yuksaltiruvchi, jamiyatdagi barqarorligini ta’minlovchi yangi ijtimoiy kapitalni yaratadi.

Tizimli yondashuv nuqtai nazardan, ushbu uchlik elementlarning oddiy yig‘indisidan sifat jihatidan farq qiluvchi yangi xossani emerdjentlikni vujudga keltiradi. Emerdjentlik shundan iboratki, alohida olingan pul mablag‘i kambag‘allikni qisqartirmaydi, balki vaqtinchalik iste’molni qoplaydi. Xuddi shunday, moliyaviy madaniy asossiz berilgan ko‘nikma ham tez orada eskiradi va amaliyotda qo‘llanilmaydi. Faqatgina ularning uch tomonlama kesishish nuqtasida mustaqil iqtisodiy sub’ekt tadbirkor oila shakllanadi. Ushbu integrasiya jarayoni quyidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar zanjirida namoyon bo‘ladi.

Mazkur tizimli aloqadorlik jamiyatning ijtimoiy stratifikasiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Quyi qatlam vakillarining yuqori qatlamlarga vertikal ijtimoiy mobilligini ta’minlashda “motivasiya-ko‘nikma-moliya” modeli lift vazifasini o‘taydi. Motivasiya shaxsni passiv kutish pozitsiyasidan aktiv harakat pozitsiyasiga

o‘tkazadi. Ko‘nikma unga bozorda raqobatlashish imkonini beradigan intellektual qurolni taqdim etadi. Moliyaviy ko‘mak esa bozorga kirishdagi to‘siqlarni (barerlarni) yengib o‘tish uchun moddiy platforma yaratadi.

Amaliy misol sifatida Farg‘ona vodiysi tumanlarida an’anaviy hunarmandchilik (ipakchilik, kulolchilik) bilan shug‘ullanuvchi xonadonlar faoliyatini tahlil qilish mumkin. Ushbu hududlarda tarixiy shakllangan motivasiya – oilaviy an’anani davom ettirish va farzandlarni kasb-hunarga o‘rgatish istagi juda yuqori. Ko‘nikmalar “ustoz-shogird” tizimi orqali oilada tabiiy ravishda shakllanadi.

Aksincha, motivasiya va ko‘nikma mavjud bo‘lmagan muhitda faqatgina pul mablag‘larini yo‘naltirish kutilgan samarani bermasligi ko‘plab sotsiologik so‘rovlarda o‘z isbotini topgan. Ehtiyojmand oilalarga ishlab chiqarish vositalari (masalan, issiqxona qurib berish, chorva mollari yetkazib berish) ajratilganda, agar oilada ulardan foydalanish ko‘nikmasi va ishlashga bo‘lgan ichki motivasiyasi bo‘lmasa, ushbu mulklar qisqa muddatda sotib yuborilgani yoki yaroqsiz holga kelgani kuzatiladi.

Murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar doirasida motivasiya, kasbiy malaka va moliyaviy resurslarning funksional mutanosibligi shaxs va oila xulq-atvorini shakllantiruvchi psixologik determinantlarga ham bevosita bog‘liqdir. Abraham Maslouning ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasiga [2, 58-62] muvofiq, insonning iqtisodiy faolligi uning birlamchi fiziologik va xavfsizlik ehtiyojlarini qondirish istagidan boshlanadi. Biroq, tadbirkorlik sub’ektlarining shakllanishi uchun faqatgina quyi darajadagi ehtiyojlar yetarli emas. Oilaviy tadbirkorlik tizimida motivasiya konsepsiyasi shaxsning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ijtimoiy e’tirofga erishish va mustaqillikni ta’minlash kabi yuqori bosqichdagi psixologik Ehtiyojlar bilan chambarchas bog‘lanadi. Ijtimoiy harakat jarayonida motivasion omil oila a’zolarida muvaffaqiyatga erishish maylining (achievement motivasiyasi) ortishida namoyon bo‘ladi.

Integrativ tizimning ushbu psixologik jihati Jon Atkinsonning muvaffaqiyatga intilish va mag‘lubiyatdan qochish motivasiyalari to‘g‘risidagi nazariyasi[3, 250-255] orqali yanada chuqurroq ochib beriladi. Kambag‘allik yoki ijtimoiy himoyaga muhtojlik sharoitida yashayotgan oilalarda uzoq vaqt davomida "mag‘lubiyatdan qochish" yoki "orttirilgan chorasizlik" (learned helplessness) fenomeni ustuvorlik qilishi mumkin. Bunday muhitda insonlar yangi iqtisodiy tashabbuslardan qo‘rqishadi va mavjud barqaror, ammo kam daromadli holatni saqlab qolishga intilishadi. "Har bir oila tadbirkor" ijtimoiy harakatining asosiy vazifasi mana shu psixologik to‘siqni sindirish, ya’ni oilalarda muvaffaqiyatga intilish motivasiyasini uyg‘otishdan iborat. Bu jarayonda motivasiya tizimli ravishda yangi ko‘nikmalarni egallashga ehtiyoj yaratadi. Odamlar o‘zlaridagi mavjud bilim va malakalarning

bozor talablariga javob bermasligini anglab yetgan lahzadan boshlab, faol o‘rganish va malaka oshirish bosqichiga o‘tadilar.

Kasbiy ko‘nikmalar va amaliy malakalar ijtimoiy-iqtisodiy kontekstda insonning ishlab chiqarish quvvatini belgilovchi asosiy mezondir. Ko‘nikma tushunchasi faqatgina texnik amallarni bajarish qobiliyati emas, balki zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, moliyaviy savodxonlik, marketing va kommunikasiya san’atini ham o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oila ichidagi mehnat taqsimoti va boshqaruv ko‘nikmalarining darajasi biznesning yashovchanligini (survival rate) ta’minlovchi bosh omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. 7-tom. Xalqchil islohotlar xalqimiz manfaatlariga xizmat qiladi. M 54. – T. “Ozbekiston” nashriyoti, 2023. – B.181.
2. Maslou A. Motivatsiya i lichnost / A. Maslou; per. s angl. – 3-ye izd. – SPb.: Piter, 2008. – S. 58-62.
3. Atkinson Dj.V. Teoriya o razvitii motivatsii odobreniya / Dj.V.Atkinson // Motivatsiya i deyatelnost /X.Xekxauzen. –M.: Pedagogika, 1986. – S. 250-255.